O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
G.Sh.Rixsiyeva
______________
2025-yil "30" 06

MUTAXASSISLIKNING NAZARAIY MASALALARI
FANINING O‘QUV DASTURI
(FORS)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000-San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000-Tillar |
| **Mutaxassislik:** | 70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo‘yicha) |

**Toshkent–2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori: ________ Mirzaxmedova X.V.

Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi boshlig‘i: ________ Nuriddinov N.N.

ARM boshlig‘i ________ Yuldasheva M.M.

| Fan/modul kodi<br>MNM1206 | | O'quv yili<br>2025/2026 | Semestr<br>1,2 | ECTS — Kreditlar<br>4,4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4,4 | |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** | |
| | **Mutaxasislikning nazariy masalalari** | 96 | 144 | 240 | |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – magistrantlarda adabiyotshunoslik fanidan chuqur nazariy bilimlar, badiiy adabiyotning so'z san'ati sifatida o'ziga xosligi, adabiy hodisa va jarayonlarga ilmiy yondashuv to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**Fanning vazifasi** - talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalari hamda adabiyotshunoslik metodlari va yangi innovatsion texnologiyalarni o'rgatish orqali bilim hamda ko'nikmani shakllantirishdan iborat.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik royxatga kiruvchi **Leyden universiteti** (Leiden University (QS 141-300) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/search?PersianLiterature

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Badiiy asar va unga xos xususiyatlar. (4 soat)**

Fors adabiyotida badiiy asarlar obrazlilik, badiiy til, g'oyaviylik, estetik ta'sir kabi xususiyatlarga tayanadi. Masalan, Rudakiy she'riyatida insoniy tuyg'ular obrazli va ohangdor til orqali ifodalanadi; Sa'diy "Guliston" va "Buston" asarlarida g'oyaviy-ma'rifiy qarashlar hikoya va she'riy shakldа beriladi; Hofiz g'azallari esa estetik go'zalligi, ramziy obrazlari bilan mashhur. Shuningdek, fors adabiyotida didaktik ruh (ibrat va hikmat berish) ham badiiy asarlarga xos asosiy xususiyatlardan biridir. Shu masalalarni aniqlash.

**2-mavzu. Badiiy tahlil mohiyati. (2 soat)**

Fors adabiyoti namunalarining ichki qatlamlarini ochib, uning ma'no va estetik mohiyatini tushunishga yordam beruvchi jarayon bo'lib, fors adabiyotida u nafaqat badiiy go'zallikni, balki falsafiy va ma'naviy teranlikni ham ochishga qaratilgan.

**3-mavzu. Badiiy asar tahlilining yetakchi tamoyillari. (2 soat)**

- *Sa'diy*ning "Guliston"ini tahlil etishda — uning g'oyaviy-ma'rifiy mohiyati (g'oyaviylik), hikmatli obrazlari (obrazlilik), badiiy nafosati (estetiklik), va davr madaniyati (tarixiylik)ni hisobga olish kerak.
- *Hofiz* g'azallarida esa ramziy majoz va falsafiy mazmunni (g'oyaviylik), she'riy san'atlarni (badiiylik), hamda o'quvchida uyg'otgan ruhiy zavqni (estetiklik) tahlil qilish yetakchi tamoyillardan bo'ladi.

**4-mavzu. Mavzu va muammoning tahlil yo'nalishini belgilashdagi o'rni. (2 soat)**

Mavzu va muammo – badiiy tahlilning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, ular asarning g'oyasi, qahramonlar xarakteri, yozuvchi uslubini ochib berishda yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Fors adabiyotida ham asarlarni tahlil qilish avvalo mavzu va muammoni aniqlashdan boshlanadi.

**5-mavzu. Badiiy tahlilda dunyoqarash va milliy mansublik. (2 soat)**

- Dunyoqarash → asarning falsafiy va g'oyaviy asosini ochib berish.
- Milliy mansublik → asarning madaniy va milliy ildizlarini aniqlash.
- Shu bois, badiiy tahlilda asarni faqat umumiy estetik go'zallik nuqtayi nazaridan emas, balki yozuvchining qarashlari va uning milliy-madaniy muhitidan kelib chiqib tushunish.

**6-mavzu. Badiiy tahlilda shakl va mazmun munosabati. (2 soat)**

Badiiy tahlilda shakl va mazmunni alohida emas, balki **bir-biri bilan uyg'unlikda** ko'rib chiqish zarur. Fors adabiyotida bu uyg'unlik ayniqsa she'riyatda yaqqol namoyon bo'ladi: mazmun — falsafiy va axloqiy qarashlar, shakl esa — musiqiy ohang va san'atkorlik go'zalligi orqali ifodalanadi.

**7-mavzu. Tahlilda subyekt va obyekt munosabati (2 soat)**

Badiiy tahlilda subyekt va obyekt o'zaro ta'sirda bo'ladi. Subyekt asar obyektini ilmiy-estetik jihatdan ochib bersa, asarning o'zi ham subyekt tafakkurini boyitadi va dunyoqarashini kengaytiradi.

**8-mavzu. Badiiy asarning ilmiy tahlili (2 soat)**

Fors adabiyotida ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, badiiy asarlar nafaqat go'zallik manbai, balki **tarixiy, falsafiy va ma'naviy qadriyatlarni aks ettiruvchi ilmiy obyekt** hamdir. Ilmiy tahlil orqali biz asar mazmunini chuqurroq anglash, uning **milliy-madaniy ildizlarini** ochish va adabiyotshunoslik uchun nazariy xulosalar chiqarish.

**9-mavzu. Badiiy tasvir va ilmiy tahlil bosqichlari munosabati. (2 soat)**

- Bu bosqichda asar **aqliy-nazariy** jihatdan o'rganish.
- Mavzu, g'oya. obrazlar tizimi, til, uslub, davr ruhiyati va muallif

dunyoqarashi ilmiy asosda ochib berish.

- Badiiy zavq → ilmiy mulohaza orqali yanada chuqur anglash.

**10-mavzu. Tahlilda tasviriy unsurlar uyg'unligi. (2 soat)**

Tahlilda tasviriy unsurlar uyg'unligini ochish – asarning **badiiy qudrati va estetik qiymatini** to'liq tushunishga yordam beradi. Fors adabiyotida bu uyg'unlik eng ko'p **she'riyatda** ko'zga tashlanadi: obraz, tashbeh, ramz va ohangning birlashuvi asarni o'lmas san'at asariga aylantirgan.

**11-mavzu. Tahlilda adabiy tur va janrga xos xususiyatlar. (2 soat)**

- Epik asarlar tahlili – tarixiylik, voqeabandlik va obrazlar tizimini ochishga yo'naltiriladi.
- Lirik asarlar tahlili – shoir kechinmalari, ramziy obrazlar va musiqiy ohangni tushuntirishga asoslanadi.
- Dramatik asarlar tahlili – ziddiyat, dialog va dramatik vaziyatlarni yoritishga qaratiladi.

Fors adabiyotida epik va lirik tur asosiy o'rin tutadi, shu bois tahlilda ko'pincha ularning mazmuniy va badiiy xususiyatlari yetakchi bo'ladi.

**12-mavzu. Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari. (4 soat)**

Lirik asarni tahlil qilishda:

1. mavzu-g'oya aniqlanadi,
2. obraz va ramzlar ochiladi,
3. she'riy san'atlar tahlil qilinadi,
4. shakl o'rganiladi,
5. falsafiy-estetik qatlam tushuntiriladi.

Fors adabiyotida lirik tahlil ko'proq Hofiz, Sa'diy, Rudakiy, Xayyom kabi shoirlar ijodida amaliy qo'llanadi.

**13- mavzu. Epik asarlar tahlili. (2 soat)**

Fors adabiyotida epik tur eng yuksak darajada rivojlangan, xususan, dostonchilik bu adabiyotning poydevoridir. Epik asar tahlili jarayonida syujet, obrazlar, til-uslub, tarixiylik va g'oya chuqur o'rganiladi. Fors adabiyotida epik tur – xalq ruhiyatini, tarixiy o'zlikni, axloqiy va falsafiy qarashlarni mujassam etgan yuksak adabiy hodisadir.

**14-mavzu. Dramatik asarlarni tahlil qilish. (2 soat)**

Fors adabiyotida drama alohida janr sifatida kechroq shakllangan bo'lsa-da, klassik dostonlarda va masnaviylarda dramatik unsurlar kuchli ifodalangan. Dramatik asarlarni tahlil qilishda asosiy e'tibor ziddiyat, qahramonlarning nutqi va ruhiyati, dramatik sahnalar kuchiga qaratiladi. Fors adabiyotida sof drama keyinroq yuzaga kelgan bo'lsa-da, Shohnoma, Nizomiy dostonlari va Attor asarlari dramatik ruh va to'qnashuvlarga boyligi bilan tahlil uchun katta material beradi.

**15-mavzu.Badiiy tahlil bosqichlari. (2 soat)**

Badiiy tahlil bosqichlari – hissiy qabul → mazmun → obrazlar → shakl → kontekst → estetik xulosa ketma-ketligida amalga oshadi. Fors adabiyotidagi yirik namoyandalarning asarlarini shu tartibda o'rganish ularning falsafiy va estetik mohiyatini chuqur anglash.

**16-mavzu. Tahlil teranligiga erishishda sinchi shaxsiyati. (2 soat)**

Tahlilning teranligi ko'p jihatdan sinchi shaxsiyatiga bog'liq:

- Bilim → tarixiy va adabiy kontekstni ochadi.
- Did → badiiy go'zallikni ko'ra oladi.
- Ruhiy sezgi → ramzlar va falsafiy qatlamni teran anglaydi.

Fors adabiyoti asarlarini chuqur tahlil qilish uchun sinchi nafaqat olim, balki hassos o'quvchi bo'lishi kerak.

**17-mavzu. Interpritatsiya va hermenevtika. (2 soat)**

Badiiy asarlarni tahlil qilishda interpretatsiya va germenevtika tushunchalari juda muhim. Ular asarning mazmunini ochish, turli qatlamlarini tushuntirish va o'quvchiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Fors adabiyotidagi asarlar ko'p ma'noliligi bilan mashhur. Interpretatsiya – o'quvchining shaxsiy qarashlari asosida talqin beradi. Germenevtika – tarixiy, falsafiy va madaniy kontekstdan kelib chiqib, asarning asl mohiyatini ochadi.

**18-mavzu. Ijtimoiy va formal tahlil maktablari. (2 soat)**

Adabiyotshunoslikda asarni tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlar mavjud. Ulardan eng muhimlari — ijtimoiy tahlil maktabi va formal tahlil maktabi. Ijtimoiy tahlil maktabi asarni jamiyat hayoti, tarixiy sharoit, ijtimoiy muammolar bilan bog'lab o'rganadi. Formal tahlil maktabi asarni ichki tuzilishi, shakl, uslub, badiiy vositalar nuqtai nazaridan o'rganadi.

**19-mavzu. Madaniy-tarixiy va naturalistic maktablar. (2 soat)**

Adabiy asarlarni tahlil qilishda **madaniy-tarixiy** va **naturalistik** yondashuvlar alohida metodologik maktab sifatida shakllangan. Har ikkisi ham badiiy matnni o'z uslubida sharhlaydi. Fors adabiyotini o'rganishda: *Shohnoma* — madaniy-tarixiy maktabda milliy tarixni saqlash; *Hofiz* — ijtimoiy zulmga qarshi ruhiy-axloqiy norozilik; *Xayyom* va *Rudakiy* — naturalistik maktabda insonning tabiiy hayoti va instinktlaridan kelib chiqib tahlil qilinadi.

**20-mavzu.Tarixiy-funksional tahlil maktabi. (2 soat)**

Tarixiy-funksional maktab — mumtoz va zamonaviy fors adabiy asarlarini nafaqat estetik hodisa sifatida, balki jamiyat hayotida tutgan o'rni va bajaradigan funksiyasi asosida o'rganish.

**21-mavzu. Tarixiy-tipologik va qiyosiy-tarixiy maktablar. (2 soat)**

- Tarixiy-tipologik yondashuv *Shohnoma*ni boshqa xalq qahramonlik dostonlari bilan bir qatorda milliy epos sifatida tushuntiradi.
- Qiyosiy-tarixiy yondashuv esa *Nizomiy, Sa'diy, Hofiz* ijodining turkiy, arab, hind va Yevropa adabiyotiga ko'rsatgan ta'sirini ilmiy asosda ochib beradi.

**22-mavzu. Modern asar va uning tahlili. (2 soat)**

- Modern asar klassikdan farqli ravishda inson ruhiyatini markazga qo'yadi.
- Fors adabiyotida modernizm *Nimo Yushij, Forug' Farruxzod, Sodeq Hedoyat* ijodida yorqin ko'rinadi.
- Ularning asarlarini tahlil qilishda ramz, psixologik tahlil, shakliy yangiliklarni inobatga olish.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Mutaxasislikning nazariy masalalari" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Mutaxasislikning nazariy masalalari" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fors adabiyotida badiiy asarning mohiyati va o'ziga xos belgilarini aniqlash (Sa'diyning "Guliston"i misolida).
2. Fors adabiyoti namunalarida adabiy tahlilning mazmuni va maqsadi (Hofiz g'azallari asosida).
3. Fors adabiyoti klassiklari ijodida tahlil jarayonining asosiy tamoyillari (Nizomiy "Xamsa"si asosida).
4. Fors she'riyatida mavzu va muammo tahlilining ahamiyati (Umar Xayyom ruboiylari asosida).
5. Fors adabiyotida dunyoqarash va milliy qadriyatlarni badiiy tahlil qilish (Firdavsiy "Shohnoma"si misolida).
6. Fors adabiyotida shakl va mazmun uyg'unligini ochib berish (Forug' Farruxzod she'rlari asosida).
7. Fors nasri va she'riyatida subyekt va obyekt munosabatlarini ko'rsatish (So'hrab Sepehriy ijodi misolida).
8. Fors adabiyoti namunalarini ilmiy asosda tadqiq qilish (Sodeq Hedoyat "Ko'r boyoqchi" asari asosida).
9. Fors she'riyatida tasvir va tahlil bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlik (Hofiz lirikasida).
10. Fors lirikasida tasviriy vositalar uyg'unligini tahlil qilish (Rudakiy asarlari asosida).

11. Fors adabiyotida adabiy tur va janr xususiyatlarini tadqiq etish (epos, lirika, drama misolida).
12. Fors lirikasini tahlil etish usullari (Hofiz va Xayyom she'rlari asosida).
13. Fors epik asarlarini tahlil qilish yo'llari ("Shohnoma"dagi Rustam obrazi misolida).
14. Fors adabiyotida dramatik asarlarni o'rganish metodlari (Bahor va Hoziq dramalari asosida).
15. Fors klassik va zamonaviy adabiyotida badiiy tahlil bosqichlari (Sa'diy va Jomiy asarlari asosida).
16. Fors adabiyotini talqin qilish: interpretatsiya va hermenevtika (Hofiz g'azallarining turli talqinlari misolida).
17. Fors adabiyotida tarixiy-funksional tahlil asoslari ("Shohnoma"ning bugungi ahamiyati).
18. Fors modern adabiyotini tahlil qilish (Nimo Yushij, Forug' Farruxzod, Sodeq Hedoyat ijodi misolida).

## IV. MUSTAQIL TA'LIM

### Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilinadi.

**"Mutaxasislikning nazariy masalalari"** fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Rumiyning "Ichindagi ichindadur" asari tahlili
2. Attorning "Mantiq ut-tayr" asari tahlili
3. Sa'diyning "Bo'ston" asari tahlili
4. Shams Tabriziyning g'azallari badiiy tahlili
5. Rumiy g'azallari badiiy tahlili
6. Umar Xayyom ruboiylari tahlili
7. Jomiyning "Bahoriston" asari tahlili
8. Rumiyning "Divone Shams" to'plamidan tanlangan ruboiylari tahlili
9. Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonindan parchalar tahlili
10. Amir Xusrav g'azallari badiiy tahlili
11. Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarining tahlili
12. Bedil Kulliyotining (parchalar) badiiy tahlili
13. Zebuniso Begim ruboiylari tahlili
14. Urfiy Sheroziy, Neshot Isfahoniy, Kalim Koshoniy ijodiy merosi

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarning mavzu va boblarini o'rganib chiqish;
- tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;

| | |
|---|---|
| | • maxsus adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;<br>• o‘quv-ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq mavzularni chuqur o‘rganish;<br>• ta’lim olishning faol va muammoli usullari qo‘llangan o‘quv mashqlarni bajarish;<br>• taqdim etilayotgan mavzu bo‘yicha referat, esse, maqolalar tayyorlash;<br>• mavzu bo‘yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;<br>• ilmiy ma’ruza tayyorlash va taqdimoti. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>***Talaba bilishi kerak:***<br>• badiiy adabiyotning mohiyati, uning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari to‘g‘risida ***bilishi kerak;***<br>• badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmun tomonlari, badiiy asar syujeti, kompozisiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo‘llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo‘nalishlar bo‘yicha echimlar qabul qilish ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak;***<br>• talaba badiiy adabiyotni san’atga dohil etuvchi obrazlilik va obraz tushunchalarini bilishi va ulardan foydalana olishi ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• jamoa bo‘lib ishlash. |
| 6 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 7 | **VIII. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**<br><br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Adabiyotshunoslik terminlarining forscha-dariycha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T., 2025.<br>2. Mannanov A., Imomnazarov M. Fors adabiyoti. Toshkent, 2016<br>3. Shomuhamedov Sh. Mumtoz fors adabiyoti (X-XV asrlar). O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011<br>4. Yuldasheva S., Sotiboldiyeva S. Eron adabiyoti. (XVI asr va XX asrning 50- yillari). O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2013.<br>5. Турдиева О. Хозирги замон эрон хикоячилиги: монография. Тошкент. |

| | |
|---|---|
| | – 2015<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023<br>3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O’zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O’zbekiston, 2023.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.<br>5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.<br>6. Adabiy turlar va janrlar. (Tarixi va nazariyasiga doir) 3 tomlik. T.1., 2-T.: Fan, 1991, 1992.<br>7. Umurov N. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: Sharq, 2002.<br><br>**Scopusdan maqolalar**<br>8. Oydin Turdiyeva, Kabirova Nargiza, Akmalxon Akmalxonov. (2023). Ideological and aesthetic features of modern iranian short story. The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies. Elsevier/Scopus. 128. 133. https://spast.org/techrep/article/view/5025<br>9. Esfehani L.S. Cognitive poetics as a literary theory for analyzing Khayyam's poetry // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 32, 2012, Pages 314-320. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.01.046.<br>10. Lacey Okonski, Journal of Pragmatics,Volume 211, 2023, Pages 27-30, ISSN 0378-2166, https://doi.org/10.1016/j.pragma.2023.03.012.<br>11. Stefan Blohm, Valentin Wagner, Matthias Schlesewsky, Winfried Menninghaus, Sentence judgments and the grammar of poetry: Linking linguistic structure and poetic effect, Poetics, Volume 69, 2018, Pages 41-56, ISSN 0304-422X, https://doi.org/10.1016/j.poetic.2018.04.005.<br><br>**Axborot manbalari**<br>12. http://www.ziyo.net<br>13. http://www.afghanistan-analysts.org<br>14. http://www.ariananews.af<br>15. http://www.aopnews.com<br>16. https://www.thekabultimes.gov.af/ |
| **8.** | Fanning o‘quv dasturi Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil “28” 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil “28 ” 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |

| | |
|---|---|
| 9. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>**O.Turdiyeva** – Eronshunoslik afg'onshunoslik oliy maktabi dos., f.f.d. |
| 10. | **Taqrizchilar:**<br>**M.Imomnazarov** – TDShU, Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi prof., f.f.d.<br>**F.A.Nizamova** – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, f.f.n. |